

**URUG' MEVALI DARAXTLARNI MONILIOZDAN HIMOYA QILAYLIK**

**S.A.Mirzayeva -dotsent, A.S.Abdulazizov – magistr,**

**S.Xoldarova -talaba**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotekhnologiyalar instituti*

Respublikamiz qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlari bo'lgan bog'dorchilik va uzumchilikni yanada rivojlantirish, yetishtirilayotgan meva va uzum hosilining miqdori va sifatini oshirishning asosiy shartlaridan biri tok va mevali daraxtlarni zararli organizmlardan, jumladan kasalliklardan himoya qilishdir. Urug'li va danakli mevali daraxtlar, tok, yong'oq, anor va anjirda bir necha o'nlab zamburug', bakteriya, virus, fitoplazma va nematodalar qo'zg'atadigan infeksiyon kasalliklar mavjud bo'lib, ular hosilning ko'p qismini nobud qilishi mumkin.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida, kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil bu – qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish ekanligini alohida ta'kidlab o'tgani bejiz emas.

Respublikamizni iqlim sharoitini qulayligi, sun'iy sug'orish imkoniyati va tuproqning unumdorligi, bu yerda xilma-xil meva-sabzavot ekinlari o'stirish va ulardan mo'l-ko'l xosil olish imkoniyatini beradi.

Mevali bog'lar hosildorligini oshirish va mevalar sifatini yaxshilash shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Mevali bog'larning hosildorligini oshirishning asosiy omillaridan biri - ularni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishdir. Mevali bog'larda zarar yetkazib yashovchi 150 dan ortiq zararkunanda va kasalliklar ma'lum. Bunday zararkunandalar bioekologiyasini yaxshi bilgan holda kurash tadbirlarini ularning eng zaif davrida o'tkazish o'ta muhimdir.

Monilioz bilan behining faqat fiziologik yosh to'qimalari, jumladan barglari, gullari va novdalari zararlanadi, yetilgan mevalari kam hollarda zararlanadi.

Barglarda oldin kichik, nuqtasimon qizg'ish dog'chalar paydo bo'ladi. Ular o'sib, sarg'ish yoki to'q-qo'ng'ir, deyarli qora tusli dog'larga aylanadi, barg qo'ng'ir tus oladi. Keyinchalik asosan bargning ustki tomonidagi katta tomirlari bo'ylab, dog'lar ustida kulrang mog'or rivojlanadi. Kuchli zararlangan barglar to'kiladi va novdalar yalang'och bo'lib qoladi [1].

Kasallikning eng xavfli shakli – daraxtlarning gul va meva tugunchalari zararlanishidir. Gullar zararlanganida meva tugunchalari va ularning atrofidagi yaproqchalar butunlay chirydi, qo'ng'ir tus oladi, kuyganga o'xshab, daraxtlarda osilib qoladi (1-rasm). Yosh novdalar ustida qo'ng'ir dog'lar va yaralar paydo bo'ladi. Daraxt uchlari sovuq urganga yoki kuyganga o'xshab qoladi. Barcha zararlangan organlarda yoqimli yertut hidini chiqaruvchi kulrang mog'or rivojlanadi. Kuzda zararlangan

tugunchalarda, kamroq hollarda barglarda sklerotsiyalar paydo bo'ladi [2].



1- rasm. Urug' mevali daraxtlar bargi va guullarida (chapda) olmada, o'ngda bexida monilioz kasaligining belgilari

Олма ва нокнинг монилиоз (мева чириш) касаллиги дунёнинг барча мамлакатларида, жумладан Марказий Осиё давлатларида ҳам тарқалган, Ўзбекистонда барча вилоятларда учрайди.

Касаллик белgilari: энг зарарли шакли – мева чириши; кўпинча пишиб етилган, кам ҳолларда етилаётган мевалар зарарланади; олма ва нок мевалари устида кичик, думалоқ шакли, кўнғир тусли доғлардан бошланади; улар тез ўсади ва меванинг устини қоплаб олади, тўқ-кўнғир тус олади, мева юмшаб, бутунлай чириб кетади.; кейинроқ зарарланган мевалар мумланиб қолади, ичи мицелий билан тўлади ва склероцийларга айланади; улар ерга тўкилади, баъзилари дарaxтда осилиб қолади; кеч зарарланган меваларда касаллик белgilari омборхонада сақлаш пайтида ривожланади.

Monilioz ko'p mamlakatlarda behining eng zararli kasalligi hisoblanadi. Zararlangan shona, tuguncha, barg va novda bo'g'inlari nobud bo'ladi, novdalar yalang'och va daraxtlar kuchsiz bo'lib qoladi. Umuman hosil pasayishi shonalar va tugunchalar kasallik tufayli nobud bo'lishiga mutanosibdir



Monilinia mali va Monilinia cydonia zamburug'lari bilan zararlangan mevalar

Qo'zg'atuvchi zamburug' tor ixtisoslashgan va faqat behini zararlaydi. Bexida Monilnia cydonia zamburug'I biologiyasi va zararini chuqur o'rganish va zamburug'ga qarshi Bionergiya -M preparatini qo'llab, biologik hamda iqtisodiy samaradorligini

o'rganish maqsadida akad M.Mirzayev nomli "Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ITI" Andijon tajriba stantsiyasi sharoitida tadqiqotlar olib borilishi rejalastirilgan.

Tadqiqot natijalarga ko'ra, nazoratga nisbatan biologik samaradorlik andozada 69,2 %, tajribada 74,0 -88,4 % ni tashkil etdi (1-jadval)

Adabiyotlar

1. Xasanov B.A. va boshq. Мевали ва ёнғоқ мевали дарахтлар, цитрус, резавор мевали буталар ҳамда ток касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари. Тошкент: "Office Print", 2010, 316 б.

2. S.A.Mirzayeva, A.S.Abdulazizov. Bexida monilioz kasalligi qo'zg'atuvchisining zarari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali.22-son.2023. 97-98 bet

1- jadval

MONILIOZ KASLLIGINI QO'ZG'ATUVCHI ZAMBURUG'GA QARSHI QOLLANILGAN BIOENERGIYA-M PREPERATIINING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

№	Variantlar	Preparat sarf-meyori, l/ ga	Umumiy kasallanish, %								Kasallanish darajasi, %	Biologik samaradorlik, % hisobida
			Fungitsid sepilgunga qadar		Fungitsid sepilganidan keyingi kunlar							
			O'simlik (O')	Bargi (B)	3		7		14			
					O'	B	O'	B	O'	B		
1	Nazorat (himoyasiz)	-	25,8	24,0	24,3	22,2	28,5	38,0	52,3	62,4	35,0	-
2	Andoza-Saprol 20 % em.k.	1,0	30,2	22,4	10,4	8,9	8,5	10,8	9,0	21,2	9,3	69,2
3	Tajriba Bienergiya-M	0,5	30,4	24,2	8,4	6,8	7,2	7,0	8,0	8,3	7,9	74,0
4	Tajriba Bienergiya-M	1,0	30,8	26,0	8,0	6,2	6,0	6,5	6,2	6,4	6,5	88,4